

O'RTA MAXSUS VA PROFESSIONAL TA'LIM TASHKILOTLARI PEDAGOG KADRLARINI ATTESTATSIYADAN O'TKAZISH UCHUN GAZ TA'MINOTI TIZIMLARI FANIDAN MALAKA TEST SINOV TOPSHIRIQLARI SPETSIFIKATSIYASI

I. Maqsad

Mazkur test varianti tafsilotining maqsadi kasbiy ta'lim fanlarini bilish darajasini baholashning malaka toifalarini berish test tizimi doirasida Gaz ta'minoti tizimlari fani talabgorlarining bilim darajasini aniqlash va sertifikatlash uchun qo'llaniladigan test varianti formati (topshiriqlar soni, turi, vaqt me'yori), fan mazmuni tarkibi, kognitiv ko'nikma darajalari, baholash mezonlari va talabgorlarning tayyorgarlik darajasiga qo'yiladigan talablarni belgilashdan iborat.

II. Me'yoriy asoslar

1.O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 17-sentyabrdagi **"Maktabgacha, umumiy o'rta, o'rta maxsus, professional va maktabdan tashqari ta'lim tashkilotlari pedagog kadrlarini attestatsiyadan o'tkazish tartibini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"**gi 572-sonli Qarori.

III. Baholash qamrovi: mazmun sohalari

Gaz ta'minoti tizimlari

1. Gaz ta'minoti bilan ta'minlash;
2. Gaz tizimlarini ekspluatatsiya qilish;
3. Sanoatda gaz tizimlari;
4. Past bosimli gaz tizimlar;
5. Xavfsizlik talablari;
6. Gigiyenani doimiy olib borish.

IV. Baholanadigan mazmun sohalar va konstruktlar

T/r	Mazmun sohalar	Konstruktlar	Ulushi (%)	Testlar soni
1	Gaz ta'minoti bilan ta'minlash	Gaz manbalari va aralash gazlar SUG, tabiiy gaz, gazning fizik kimyoviy xususiyatlari, gaz bosimi bosqichlari, pas, o'rta, yuqori bosimlarini tushunish va farqlay oladi. Gaz taqsimlash stansiyalari shahar va mahalliysini farqlay olish, gaz sarfini aniqlash va hisoblashni, gaz regulyator punktlari GTP, GTS haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	20 %	8 ta
2	Gaz tizimlarini ekspluatatsiya qilish	Gaz uskunalarining texnik holatini monitoring qilish, quvurlarni planli tekshirishni, gaz sizishlarni aniqlash va bartaraf qilishni, avtomatik muhofaza va blokirovka tizimlarini, profilaktik ta'mir ishlari, ekspluatatsiya jurnalini yuritishni, qo'llanma va standartlarga rioya qilish (NQ, GOST, SNIp) haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	30 %	12 ta
3	Sanoatda gaz tizimlari	Sanoat gaz iste'molchilari (qozonxona, isitish texnologiyalari liniyalarini, yuqori bosimli gaz tarmoqlari, gaz regulyator stansiyalari (GTS), yo'qotishlar va samaradorlikni boshqarishni, sanoat avtomatizatsiyasi va sensorlarini, ishlab chiqarish xavfsizligi, avariya holatlari uchun rezerv tizimlar haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
4	Past bosimli gaz tizimlar	Ichki gaz tarmoqlari (uy, bino, xonadon), gaz reduktor va regulyatorlar, Gaz plita, isitish qurilmalari, ventilyatsiya va havo almashinuv talablarini, bino ichida quvur o'tkazish qoidalarini, gaz chiqish xavfini aniqlash uskunalari (datchik), qurilish va montaj qoidalari haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	15 %	6 ta
5	Xavfsizlik talablari	Gaz bilan ishlashda umumiy qoidalarini, portlash va yong'in xavflari, gaz sizishda harakatlar algoritmi, avariya qarshi avtomatik tizimlarni, shaxsiy muhofaza vositalari (NQZ) gaz analizatorlarni, instruktaj va o'quv mashg'ulotlari, evakuatsiya qoidalari haqida bilimlarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta

6	Gigiyenani doimiy olib borish	Ish muhitining sanitariya normalarini, tozalik va dezinfektsiya qoidalari, ish muhitining sanitariya normalari, shaxsiy gigiyena talablari, ish joyida havo almashinuv va mikroklimat, himoya kiyimlari va asboblarni tozalashni biladi. Ish joyini to'g'ri yo'lga qo'yish, og'irlik, chang, is gazlarining chek chegarasi (PDK), haqida bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim.	10 %	4 ta
---	-------------------------------	---	------	------

V. Baholanadigan kognitiv ko'nikmalar va taqsimoti

T/r	Kognitiv daraja	Izohi	Ulushi (%)
1.	Bilish	Fanga doir nazariy ma'lumotni, atama va qoidalarni eslab qolish, tushunish, nazariy jihatdan tahlil qila olish	50%
2.	Qo'llash	O'zlashtirgan nazariy bilim va tushunchalarni yangi kontekstlarda (ta'limiy, muammoli vaziyat va pedagogik-psixologik holatlarda) ishlata olish	30%
3.	Mulohaza qilish	Muayyan faktlar, dalillar va normalarni mantiqiy bog'liq tarzda tahlil qilib, jarayonlarning ketma-ketligini farqlab, vaziyatni analiz qilib, xulosalar chiqara olish	20%

VI. Test turlari va taqsimoti

T/r	Test turi	Izohi
1.	Y1	To'rtta variantdan bittasi to'g'ri bo'lgan muqobil javobli yopiq test
2.	Y2	Tartiblangan bir nechta javoblardan to'g'rilarni topishni talab qiladigan muqobil javobli yopiq test
3.	Y3	Moslashtirishni talab qiladigan yopiq test
4.	Y4	Gap yoki jarayonlarni to'g'ri ketma-ketlikda joylashtirish talab etiladigan yopiq test

VII. Baholash mezoni va ajratilgan vaqt

Test topshiriqlari umumiy 80 ball bilan baholanadi.

Har bir to'g'ri javob 2 ball, noto'g'ri javob esa 0 ball bilan baholanadi.

Test variantini yechish uchun 80 daqiqa vaqt me'yori belgilanadi.

VIII. Imtihon tartibi

Taqiqlangan vositalar: imtihon vaqtida mobil telefon, aqlli soat, planshet yoki elektron eslatmalardan foydalanish qat'iyan man etiladi.

Axloq va intizom: nusxa ko'chirish, yordam so'rash yoki yordam berish,

imtihon davomida gaplashish, ruxsatsiz chiqish kabi holatlar taqiqlanadi.

Nazoratchi qoidabuzarlikni aniqlaganda, uni rasmiylashtirib, tinglovchini testdan chetlashtiradi va natijasi bekor qilinadi.

IX. Inklyuziya va moslashtirish

Alohida ta'limga ehtiyoji bor talabgorlar uchun qo'shimcha 15 % vaqt beriladi. Shuningdek, topshiriqlarning berilish shakli va turi ham ularga mos va qulay shaklda taqdim etiladi.

Ko'rish sohasida imkoniyati cheklangan talabgorlar savollarni o'qib berishi uchun maxsus texnik yordamchi bilan kelishiga ruxsat etiladi, faqat savolning to'g'ri javobini aytishi mumkin emas.

X. Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'rinov U.K. Karimov SH.A. Ergashev S.I. Neft gaz sanoati jihozlari va quvur transport tizimlari. – TASHKENT.: «NSH» MChJ, 2023

2. O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 22-sentabrdagi O'RQ-410-sonli "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi *Qonuniga asosan yangi tahrirda qabul qilingan*.

3. Narziyev Sh.M, Mudarisova R.X, Gaibnazarov S.B. Sohalar mehnat va texnika xavfsizligi. [Матн] (O'quv qo'llanma). / Toshkent: «Firdavsshoh», 2023

4. Narziyev Sh.M, Mudarisova R.X, Gaibnazarov S.B. Sohalar mehnat va texnika xavfsizligi. [Матн] (O'quv qo'llanma). / Toshkent: «Firdavsshoh», 2023

5. Правила безопасности в нефтегазодобывающей промышленности Республики Узбекистан. Ташкент, 2000 г.

6. Rahimov O.D. Hayot faoliyati xavfsizligi (Fanni asosiy mazmuni va test savollari to'plami), Toshkent, 1999

7. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi – T.: O'zbekiston, 2014.

8. "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risida"gi (yangi taxriri) O'zbekiston Respublikasi Qonuni. 2016 yil 22 sentyabr.

9. Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risidagi Nizom. Vazirlar Mahkamasining qarori № 286, 06.06.1997, –T.: 1997.